



FARG'ONA VILOYATI

STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA  
VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil  
yanvar-dekabr*



## FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni 3 976,5 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 80,1 ming kishiga yoki 2,1 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 231,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,1 %), qishloq aholisi soni 1 744,9 ming kishi (43,9 %) ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**3 976,5** *ming kishi*

### Tabiiy o'sish

**(+) 80,1** *ming kishi*

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar



**56,1%**



#### Qishloq



**43,9%**

### Aholining tabiiy harakati, *ming kishi*




**Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar**
*2022- yil yanvar-dekabr*

**Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni**
*2022- yil 1- yanvar holatiga*


2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,1 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 57,0 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 11,9 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2022- yil 1- yanvar holatiga




2022- yil 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 223,2 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 72,7 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 207,0 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 79,1 ming kishini tashkil etgan.

## Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2022- yil 1- yanvar holatiga




2022- yilning 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,5 yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun 72,5 yoshga, ayollar uchun esa 76,5 yoshga teng. Shahar joylar 74,7 yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,1 yoshni tashkil etgan.

**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**
*2023- yil 1- yanvar holatiga*

**Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
*2023- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi*

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3 896,4</b>	<b>3 976,5</b>	<b>102,1</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	299,1	305,6	102,2
Qo'qon	259,7	264,1	101,7
Quvasoy	96,9	98,9	102,1
Marg'ilon	242,5	246,7	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	219,1	223,7	102,1
Qo'shtepa	198,4	203,5	102,6
Bag'dod	223,3	228,0	102,1
Buvayda	236,2	241,5	102,3
Beshariq	234,6	238,5	101,6
Quva	266,0	270,7	101,8
Uchko'prik	237,3	242,9	102,4
Rishton	208,4	212,3	101,9
So'x	80,6	82,0	101,8
Toshloq	209,7	214,3	102,2
O'zbekiston	246,4	250,8	101,8
Farg'ona	220,9	226,0	102,3
Dang'ara	180,8	185,3	102,5
Furqat	121,8	124,4	102,2
Yozyovon	114,7	117,3	102,2

## Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Farg'ona viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 588,3 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 11,8 kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga 576,5 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Qo'qon shahrida 7 139,3 kishi, Marg'ilon shahrida 6016,7 kishi, Farg'ona shahrida 3 046,8 kishi, Uchko'prik tumanida 883,3 kishi, Toshloq tumanida 881,7 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumani 288,1 kishi, Beshariq tumanida 308,1 kishi, Oltiariq tumanida 354,4 kishi, O'zbekiston tumanida 364,1 kishi, So'x tumanida 371,2 kishini tashkil etgan.

## Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

2023- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




**QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR**

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti**

2022- yil yanvar-dekabr, kishi

Farg'ona sh.	7 070	23,4%
Uchko'prik.	6 759	28,2 %
Qo'qon sh.	6 678	25,5 %
Marg'ilon sh.	6 523	26,7 %
Buvayda t.	6 490	27,2%
Bag'dod t.	6 029	26,7 %
Farg'ona t.	5 985	26,8 %
O'zbekiston t.	5 975	24,0%
Oltiariq t.	5 877	26,5 %
Qo'shtepa t.	5 744	28,6 %
Toshloq t.	5 635	26,6 %
Beshariq t.	5 571	23,6 %
Dang'ara t.	5 283	28,9 %
Rishton t.	5 056	24,0 %
Furqat t.	3 196	26,0 %
Yozyovon t.	3 030	26,1 %
Quvasoy sh.	2 352	24,0 %
So'x t.	1 843	22,7 %

2022- yil yanvar-dekabr oylarida 101,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,8 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan 0,1 promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda 25,7 promilleni tashkil etgan).

**Tug'ilishlarning chaqaloqlar foizda taqsimlanishi***2022- yil yanvar-dekabr*

2022- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:

- 1 nafar – **98,1%**
- 2 nafar – **1,8%**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1%**

**Tug'ilganlar soni  
yanvar-mart  
22,0 ming kishi**




**Tug'ilganlar soni  
yanvar-iyun  
45,0 ming kishi**



**Tug'ilganlar soni  
yanvar-sentabr  
74,0 ming kishi**



**Tug'ilganlar soni  
yanvar-dekabr  
101,4 ming kishi**



**VAFOT ETGANLAR**

**Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti**

2022- yil yanvar-dekabr, kishi

Farg'ona sh.	1 949	6,4 %
Qo'qon sh.	1 250	4,8 %
O'zbekiston t.	1 234	5,0 %
Marg'ilon sh.	1 192	4,9 %
Beshariq t.	1 190	5,0 %
Quva t.	1 092	4,1 %
Farg'ona t.	1 029	4,6 %
Uchko'prik t.	1 016	4,2 %
Toshloq t.	1 015	4,8 %
Bag'dod t.	953	4,2 %
Oltiariq t.	936	4,2 %
Dang'ara t.	935	5,1 %
Rishton t.	900	4,3 %
Qo'shtepa t.	892	4,4 %
Buvayda t.	887	3,7%
Furqat t.	588	4,8 %
Quvasoy sh.	485	5,0 %
So'x t.	470	5,8 %
Yozyovon t.	447	3,9 %

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 18,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilda 4,8 promilleni tashkil etgan).


**O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi**

2022- yil yanvar- dekabr, kishi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 59,7 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,4 %i – o'simtalardan, 7,7 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,5 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,7 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 13,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Kasalliklar nomi	soni	ulushi foiz (%)
<b>Qon aylanish tizimi kasalliklaridan</b>	11 020	59,7
<b>Nafas olish a'zolari kasalliklaridan</b>	1 428	7,7
<b>O'simtalardan</b>	1 370	7,4
<b>Baxtsiz hodisa zaharlanish va jarohatlanishlardan</b>	1 199	6,5
<b>Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan</b>	901	4,9
<b>Yuqumli va parazitlar kasalliklaridan</b>	134	0,7
<b>Boshqa kasalliklardan</b>	2 408	13,1

**QAYD ETILGAN NIKOHLAR**

**Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti**
*2022- yil yanvar-dekabr, birlik*

Farg'ona sh.	2 204	7,3 %
Buvayda t.	2 134	8,9 %
Quva t.	2 077	7,7 %
Bag'dod t..	2 037	9,0 %
Uchko'prik t.	1 999	8,3 %
Qo'qon sh.	1 997	7,6 %
Rishton t.	1 966	9,3 %
O'zbekiston t.	1 955	7,9 %
Marg'ilon sh.	1 921	7,9 %
Farg'ona t.	1 848	8,3 %
Beshariq t.	1 843	7,8 %
Oltiariq t.	1 825	8,2 %
Qo'shtepa t.	1 691	8,4 %
Toshloq t.	1 654	7,8 %
Dang'ara t.	1 585	8,7 %
Furqat t.	985	8,0 %
Yozyovon t.	826	7,1 %
So'x t.	734	9,0 %
Quvasoy sh.	711	7,3 %

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 32,0 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 8,1 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan 0,4 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 8,5 promille bo'lgan).

**NIKOHDAN AJRALISHLAR**

**Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti**
*2022- yil yanvar-dekabr, birlik*

Farg'ona sh.	744	2,5 %
Qo'qon sh.	601	2,3 %
Marg'ilon sh.	382	1,6 %
Farg'ona t.	353	1,6 %
Rishton t.	346	1,6 %
Bag'dod t.	318	1,4 %
O'zbekiston t.	313	1,3 %
Quva t.	287	1,1 %
Oltiariq t.	261	1,2 %
Dang'ara t.	247	1,3 %
Buvayda t.	247	1,0 %
Beshariq t.	226	1,0 %
Uchko'prik t.	212	0,9 %
Qo'shtepa t.	204	1,0 %
Toshloq t.	200	0,9 %
Quvasoy sh.	164	1,7 %
Yozyovon t.	141	1,2 %
Furqat t.	123	1,0 %
So'x t.	76	0,9 %

2022- yil yanvar-dekabr oylarida 5,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan 0,3 promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 1,1 promille bo'lgan).

## AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 8 618 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 11 422 kishini tashkil etib, migratsiya saldosini minus 2 804 kishini tashkil etdi.

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni


*2022- yil yanvar-dekabr, kishi*

	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>8 618</b>	<b>11 422</b>
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona sh.	2 962	1 635
Qo'qon sh.	371	1 344
Quvasoy sh.	459	316
Marg'ilon sh.	49	1 233
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq t.	127	461
Qo'shtepa t.	667	346
Bag'dod t.	63	471
Buvayda t.	287	502
Beshariq t.	213	729
Quva t.	156	605
Uchko'prik t.	339	501
Rishton t.	207	441
So'x t.	80	39
Toshloq t.	333	394
O'zbekiston t.	416	699
Farg'ona t.	756	670
Dang'ara t.	593	436
Furqat t.	406	392
Yozyovon t.	134	208


**JAMI KO'CHIB KELGANLAR**

**Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti**

2022- yil yanvar- dekabr, kishi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 8,6 mingta k o'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 2,2 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan 0,6 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 2,8 promille bo'lgan).

**JAMI KO'CHIB KETGANLAR**

**Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti**

2022- yil yanvar- dekabr, kishi

Farg'ona sh.	1 635	5,4 %
Qo'qon sh.	1 344	5,1 %
Marg'ilon sh.	1 233	5,0 %
Beshariq t.	729	3,1 %
O'zbekiston t.	699	2,8 %
Farg'ona t.	670	3,0 %
Quva t.	605	2,3 %
Uchko'prik t.	501	2,1 %
Buvayda t.	502	2,1 %
Dang'ara t.	436	2,4 %
Bag'dod t.	471	2,1 %
Rishton t.	441	2,1 %
Oltiariq t.	461	2,1 %
Toshloq t.	394	1,9 %
Furqat t.	392	3,2 %
Qo'shtepa t.	346	1,7 %
Quvasoy sh.	316	3,2 %
Yozyovon t.	208	1,8 %
So'x t.	39	0,5 %

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 11,4 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 2,9 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan 1,0 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 3,9 promille bo'lgan).

## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.



**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

*Tel: 73 241-97-74*